Qabul qilindi: 17-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 19-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 21-noyabr 2026-yil

KRIPTO-AKTIVLAR VOSITASIDA JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH: XALQARO STANDARTLAR VA O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Tawjanov Azamat Murat o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti, Kiber huquq mutaxassisligi magistranti
E-mail: tawjanovazamat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kriptovalyuta va boshqa kripto-aktivlar vositasida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashning O‘zbekiston Respublikasidagi huquqiy mexanizmlari xalqaro standartlarga qay darajada muvofiqligi qiyosiy tarzda tadqiq etiladi. Qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, tizimli tahlil va keys-tahlil metodlaridan foydalanilgan holda FATF tavsiyalari, Yevropa Ittifoqi, Singapur va Yaponiya qonunchiligi milliy normalar bilan olti mezon bo‘yicha solishtiriladi. Tadqiqot korpusi 21 ta normativ hujjat va xalqaro standartdan iborat bo‘lib, 2020-2026-yillardagi beshta sud va tergov ishi ham o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida olti mezondan ikkitasi bo‘yicha milliy qonunchilik xalqaro standartlarga muvofiq, bittasi bo‘yicha FATFdan qat’iyroq, uchtasi bo‘yicha esa qisman muvofiq deb baholanadi. Qonunchilik provayderlarni litsenziyalash va mijozni tekshirish bo‘yicha FATF 15-tavsiyasiga muvofiq, anonim kripto-aktivlar bo‘yicha esa undan qat’iyroq ekani ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, “Travel Rule” qonun darajasida belgilanmagani, uni buzganlik uchun javobgarlik yo‘qligi, Jinoyat kodeksining 243-moddasida kripto-aktivlar jinoyat predmeti sifatida ko‘rsatilmagani hamda “Travel Rule” bilan shaxsga doir ma’lumotlarni mahalliylashtirish talabi o‘rtasidagi nisbat aniqlanmagani ochib beriladi. Xorijiy sud amaliyotida markazlashmagan protokol ishlab chiquvchisining javobgarligi masalasida yagona yondashuv shakllanmagani qayd etiladi. Aniqlangan bo‘shliqlar legallashtirish belgilariga ega qilmishlarni faqat Jinoyat kodeksining 278^8-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish xavfini tug‘dirishi asoslanadi. Yakunda jinoyat, ma’muriy javobgarlik, shaxsga doir ma’lumotlar va kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi

qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: kripto-aktivlar, jinoiy daromadlarni legallashtirish, FATF, Travel Rule, markazlashmagan moliya, Tornado Cash, shaxsga doir ma’lumotlar.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ степени соответствия правовых механизмов противодействия легализации (отмыванию) преступных доходов с использованием криптовалюты и иных криптоактивов в Республике Узбекистан международным стандартам. С применением сравнительно-правового, формально-юридического, системного и кейс-методов рекомендации ФАТФ (FATF), законодательство Европейского союза, Сингапура и Японии сопоставлены с национальными нормами по шести критериям. Изучены пять судебных и следственных дел за 2020–2026 годы. Исследовательский корпус включает 21 нормативный документ и международный стандарт. По результатам исследования национальное законодательство признано соответствующим международным стандартам по двум критериям, более строгим, чем требования ФАТФ, – по одному критерию и частично соответствующим – по трем критериям. Законодательство соответствует 15-й рекомендации ФАТФ в части лицензирования провайдеров и проверки клиентов, а в отношении анонимных криптоактивов является более строгим. Вместе с тем «Travel Rule» не закреплено на уровне закона, ответственность за его нарушение отсутствует, в статье 243 Уголовного кодекса криптоактивы не указаны в качестве предмета преступления, не определено соотношение «Travel Rule» с требованием о локализации персональных данных. В зарубежной судебной практике не сформирован единый подход к вопросу об ответственности разработчика децентрализованного протокола. Выявленные пробелы создают риск квалификации деяний, имеющих признаки легализации, исключительно по статье 278[8] Уголовного кодекса. Предложены конкретные изменения в уголовное законодательство, законодательство об административной ответственности, о персональных данных и о кибербезопасности.

Ключевые слова: криптоактивы, легализация преступных доходов, ФАТФ (FATF), Travel Rule, децентрализованные финансы, Tornado Cash, персональные

данные.

Abstract. The article provides a comparative analysis of the extent to which the legal mechanisms for countering money laundering using cryptocurrencies and other crypto-assets in the Republic of Uzbekistan comply with international standards. Using comparative legal, formal-legal, systemic analysis, and case-study methods, the article compares the FATF Recommendations as well as the legislation of the European Union, Singapore, and Japan with national norms across six criteria. Five judicial and investigative cases from 2020–2026 were examined. The research corpus comprises 21 regulatory documents and international standards. As a result of the study, national legislation was assessed as compliant with international standards on two criteria, stricter than FATF on one criterion, and partially compliant on three criteria. The legislation complies with FATF Recommendation 15 regarding the licensing of providers and customer due diligence, while being stricter regarding anonymous crypto-assets. At the same time, the “Travel Rule” is not established at the statutory level, there is no liability for violating it, crypto-assets are not specified as the subject of a crime in Article 243 of the Criminal Code, and the correlation between the “Travel Rule” and the requirement to localize personal data has not been determined. In foreign judicial practice, a unified approach to the liability of a decentralized protocol developer has not been formed. The identified gaps create the risk of qualifying acts bearing signs of money laundering solely under Article 278[8] of the Criminal Code. Specific amendments are proposed to the criminal, administrative liability, personal data, and cybersecurity legislation.

Keywords: crypto-assets, money laundering, FATF, Travel Rule, decentralized finance, Tornado Cash, personal data.

Kirish

Hozirgi kunda kriptovalyuta va boshqa virtual aktivlar zamonaviy to‘lov vositasi hamda investitsiya obyekti sifatida keng qo‘llanilmoqda. Biroq ularni ommalashtirgan texnologik xususiyatlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish uchun ham qulay sharoit yaratmoqda. Tranzaksiyalar an’anaviy bank nazoratidan tashqarida, taqsimlangan reyestr – blokcheyn negizida amalga oshirilgani

sababli tezkor, transchegaraviy va psevdonim xususiyatga ega. S. Foley, J. Karlsen va T. Putniņšning hisob-kitobiga ko‘ra, 2009-2017-yillarda bitkoin tranzaksiyalarining qariyb 46 foizi noqonuniy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan.[1] Natijada jinoiy daromadlarni legallashtirishning an’anaviy uch bosqichi – *joylashtirish, qatlamlash* va *integratsiya* – kripto-aktivlar muhitida mikser xizmatlari, zanjirlararo ko‘priklar hamda litsenziyasiz ayirboshlash platformalari orqali bir necha daqiqa ichida bajarilmoqda.

Xalqaro hamjamiyat mazkur tahdidga 2018–2019-yillarda Moliyaviy chora-tadbirlar ishlab chiquvchi guruh (FATF) standartlarini virtual aktivlar va ularning xizmat ko‘rsatuvchi provayderlariga (VASP) tatbiq etish orqali javob berdi.[2] Ilmiy adabiyotlarda ushbu mavzu asosan uchta markaziy masala atrofida muhokama qilinadi: moliyaviy shaffoflik va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘rtasidagi nisbat; vositachisiz ishlaydigan markazlashmagan moliya (DeFi) tizimlarida javobgarlik subyektini aniqlash va qat’iy taqiqlovchi yoki xavf-xatarga asoslangan tartibga solish modelini tanlash.

O‘zbekistonda kripto-aktivlar aylanmasi 2018-yildan maxsus tartibga solinib, 2024-yil 19-yanvardagi **O‘RQ-899-son Qonun** bilan mazkur sohadagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik joriy etildi.[3] Biroq yangi normalarning jinoiy daromadlarni legallashtirish uchun javobgarlik bilan o‘zaro nisbati hanuzgacha aniq belgilanmagan. Mavzuga oid xorijiy nazariy ishlar asosan 2018–2020-yillarda nashr etilgan bo‘lib, 2024–2025-yillarda Tornado Cash protokoli yuzasidan chiqarilgan sud qarorlarini qamrab olmaydi. Milliy huquqshunoslikda esa Jinoyat kodeksining **243** va **278⁸-modda**lari o‘rtasidagi kvalifikatsiya nisbati hamda FATFning *Travel Rule* talabining shaxsga doir ma’lumotlarni mahalliylashtirishga oid milliy qonunchilik talablari bilan muvofiqligi yetarlicha o‘rganilmagan. Mavjud nazariy va amaliy bo‘shliq mazkur tadqiqot yo‘nalishini belgilab beradi.

[1]Foley S., Karlsen J.R., Putniņš T.J., 2019. Sex, Drugs, and Bitcoin: How Much Illegal Activity Is Financed through Cryptocurrencies? The Review of Financial Studies, Vol. 32, No. 5, pp. 1798–1853.
[2]FATF, 2012. International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation: The FATF Recommendations (keyingi o‘zgartirishlar bilan). Paris: FATF.
[3]O‘zbekiston Respublikasining 19.01.2024 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-899-son Qonuni. https://lex.uz/docs/6763849

Mazkur tadqiqotning maqsadi kripto-aktivlar vositasida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashning O‘zbekistondagi huquqiy mexanizmlarini FATF standartlari, Yevropa Ittifoqi, Singapur va Yaponiya qonunchiligi hamda xorijiy sud amaliyoti bilan qiyoslab, ulardagi bo‘shliqlarni aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot uchta savolga javob izlaydi: birinchidan, milliy qonunchilik FATF 15-tavsiyasi talablariga qay darajada muvofiq; ikkinchidan, sud amaliyotida markazlashmagan protokollar bo‘yicha javobgarlik chegarasi qanday belgilanmoqda; uchinchidan, amaldagi jinoyat-huquqiy normalar kripto-aktivlar orqali legallashtirishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish imkonini beradimi. Tadqiqot gipotezasiga ko‘ra, O‘zbekiston qonunchiligi FATF standartlarining institutsional talablariga asosan provayderlarni litsenziyalash, mijozni tekshirish talablariga muvofiq, ammo jinoyat-huquqiy va ma’lumotlar himoyasi bloklarida bo‘shliqlar mavjud bo‘lib, ular legallashtirish belgilariga ega qilmishlarni faqat kripto-aktivlar aylanmasi tartibini buzish sifatida kvalifikatsiya qilishga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur maqola mavzusiga aloqador xorijiy ilmiy adabiyotlar doirasida, avvalo, S. Foley, J. Karlsen va T. Putniņšning kripto-aktivlarning noqonuniy faoliyatda qo‘llanilish ko‘lamini miqdoriy baholagan tadqiqoti o‘rganildi.[4] Moliyaviy shaffoflik va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘rtasidagi nisbat masalasida M. Campbell-Verduyn FATFning xavf-xatarga asoslangan yondashuvini tahdidlarni kamaytirish va innovatsiyani saqlab qolish o‘rtasidagi murosa sifatida baholaydi.[5] Markazlashmagan moliya tizimlarida javobgarlik subyektini aniqlash masalasida P. De Filippi va A. Wright *lex cryptographica* sharoitida tartibga solish ta’siri kodga emas, tizimga amaliy ta’sir o‘tkaza oladigan shaxslarga qaratilishi lozimligini asoslaydi,[6] D. Zetzsche, D. Arner va R. Buckley esa markazlashmaganlik an’anaviy javobgarlik mexanizmlarini zaiflashtirishini qayd etadilar.[7]

[4]Foley S., Karlsen J.R., Putniņš T.J., 2019. Sex, Drugs, and Bitcoin: How Much Illegal Activity Is Financed through Cryptocurrencies? The Review of Financial Studies, Vol. 32, No. 5, pp. 1798–1853.
[5]Campbell-Verduyn M., 2018. Bitcoin, crypto-coins, and global anti-money laundering governance. Crime, Law and Social Change, Vol. 69, No. 2, pp. 283–305.
[6]De Filippi P., Wright A., 2018. Blockchain and the Law: The Rule of Code. Cambridge, MA: Harvard University Press.
[7]Zetzsche D.A., Arner D.W., Buckley R.P., 2020. Decentralized Finance. Journal of Financial Regulation, Vol. 6, No. 2, pp.

Xalqaro manbalar jumlasidan FATF tavsiyalari va ularning sharhlari, FATFning markazlashmagan tizimlarga nisbatan funksional yondashuvni taklif etgan 2021-yilgi yo‘riqnomasi[8] hamda tavsiyalarning ijrosi bo‘yicha 2026-yilgi maqsadli hisoboti o‘rganildi.

Tadqiqotning normativ-huquqiy bazasini BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, FATF tavsiyalari, Yevropa Ittifoqi, Singapur va Yaponiyaning tegishli qonun hujjatlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, O‘RQ-899, 660-II, O‘RQ-547, O‘RQ-764-son qonunlari hamda Prezidentning PQ-3832-son qarori tashkil etdi.

Tadqiqot sifat xususiyatga ega va qiyosiy-huquqiy dizayn asosida qurilgan. Tahlil birligi sifatida huquqiy norma hamda sud qarori olindi. Qiyoslash uchun umumiy o‘lchov sifatida FATF 15-tavsiyasi va uning sharhi tanlandi, chunki u barcha o‘rganilgan yurisdiksiyalar uchun majburiy minimal standart hisoblanadi. Tadqiqotning metodologik asosini formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil va keys-tahlil metodlari tashkil etadi.

Formal-yuridik metod yordamida milliy va xorijiy normalarning mazmuni sharhlandi. Tizimli tahlil metodi orqali litsenziyalash, mijozni tekshirish, tranzaksiyalar monitoringi va javobgarlik choralari yagona mexanizmning o‘zaro bog‘liq unsurlari sifatida o‘rganildi.

Qiyosiy-huquqiy metod milliy va xorijiy normalarni solishtirish uchun qo‘llanildi. Xorijiy yurisdiksiyalar uch mezon bo‘yicha tanlandi: a) kripto-aktivlar xizmatlari provayderlari faoliyati maxsus qonun asosida tartibga solinishi; b) *Travel Rule* joriy etilgan bo‘lishi; c) normativ hujjatlarning rasmiy matni yoki ingliz tilidagi tarjimasi ochiq bo‘lishi. Mezonlarga javob beruvchi yurisdiksiyalar orasidan tartibga solishning turli modellarini ifodalovchi uchtasi olindi: Yevropa Ittifoqi hamda litsenziyalash ma’lumotlar himoyasi bilan uyg‘unlashtirilgan Osiyo modelini ifodalovchi Singapur va Yaponiya.

Keys-tahlil metodi sud amaliyotini o‘rganish uchun qo‘llanildi. Keyslar ikki mezon asosida tanlandi: birinchidan, sud yoki tergov organi “pul”, “pul o‘tkazmasi” yoki “mol-

172–203.

[8]FATF, 2021. Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: FATF, October 2021.

mulk” tushunchasini kripto-aktivlarga nisbatan bevosita sharhlagan bo‘lishi; ikkinchidan, qaror markazlashmagan protokollar yoki mikser xizmatlari bo‘yicha javobgarlik chegarasiga daxldor bo‘lishi lozim edi. Natijada beshta ish tanlandi: *United States v. Harmon* (2020), *Van Loon v. Department of the Treasury* (2024), Niderlandiya sudining A. Pertsev ishi bo‘yicha hukmi (2024), *United States v. Storm* (2025) hamda 2026-yilda Toshkent shahrida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi. Kripto-aktivlarga oid milliy sud qarorlari ochiq manbalarda e’lon qilinmagani sababli milliy amaliyot ichki ishlar organlarining OAVda e’lon qilingan xabari asosida o‘rganildi. Keyslar “faktlar -huquqiy masala-qaror-asoslantirish” sxemasi bo‘yicha tahlil qilindi.

Normativ hujjatlarning matnlari rasmiy bazalardan olindi: O‘zbekiston qonunchiligi - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasidan, Yevropa Ittifoqi hujjatlari -EUR-Lex bazasidan, Singapur qonunlari-Singapore Statutes Online bazasidan, Yaponiya qonunlari-Japanese Law Translation bazasidagi ingliz tilidagi tarjimalardan. Sud qarorlari sudlarning rasmiy saytlari va sud hujjatlari bazalaridan, FATF hujjatlari tashkilotning rasmiy saytidan olindi. Ilmiy manba sifatida taqriz qilinadigan jurnallardagi maqolalar va monografiyalardan foydalanildi. Tadqiqotning xronologik doirasi 2018-yildan 2026-yil noyabrgacha bo‘lgan davrni qamraydi.

Har bir yurisdiksiya qonunchiligi FATF 15-tavsiyasi va uning sharhidan kelib chiqqan olti mezon bo‘yicha tahlil qilindi: birinchidan, provayderlarni bozorga kiritish rejimi; ikkinchidan, mijozni tekshirish va shubhali operatsiyalar to‘g‘risida xabar berish majburiyati; uchinchidan, *Travel Rule*; to‘rtinchidan, anonimlikni kuchaytiruvchi kripto-aktivlarga munosabat; beshinchidan, identifikatsiya ma’lumotlarini transchegaraviy uzatish va himoya qilish; oltinchidan, javobgarlik choralari. Milliy qonunchilikning har bir mezonga muvofiqligi uch darajali shkala bo‘yicha baholandi: “muvofiq”-talab normativ hujjatda aniq belgilangan; “qisman muvofiq”-talab to‘liq mustahkamlanmagan yoki uning buzilishi uchun maxsus javobgarlik nazarda tutilmagan; “belgilanmagan”-talab normativ jihatdan mustahkamlanmagan. FATF minimumidan yuqori talablar “FATFdan qat’iyroq” deb belgilandi.

Tadqiqot natijalarini tizimlashtirish va taqdim etishda IMRAD (Introduction, Methods,

Results, Discussion) tuzilmasidan foydalanildi: tadqiqot natijalari qismida normalar va qarorlarning mazmuni keltiriladi, ularning talqini esa natijalar tahlili qismida beriladi.

Tadqiqot natijalari

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kripto-aktivlar vositasida legallashtirishga qarshi kurashning xalqaro asosi umumiy va maxsus standartlardan tashkil topgan. Jinoiy daromadlarni legallashtirishni jinoyat deb topish majburiyati **BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi**ning **6-modda**sida belgilangan bo‘lib, mazkur norma mol-mulkning shaklidan qat’i nazar qo‘llaniladi.[9] Virtual aktivlarga oid maxsus talablar **FATFning 15-tavsiyasi** va unga berilgan sharhda mustahkamlangan: davlatlar virtual aktivlar bilan bog‘liq xavf-xatarni baholashi, VASPlarni litsenziyalashi yoki ro‘yxatga olishi va ularga moliya institutlari uchun belgilangan profilaktik choralarni tatbiq etishi shart. *Travel Rule*ga ko‘ra, provayder 1000 AQSH dollari yoki yevrodan ortiq o‘tkazmada jo‘natuvchi va qabul qiluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishi, saqlashi va qabul qiluvchi provayderga xavfsiz uzatishi lozim.[10]

FATFning 2026-yil iyulida e’lon qilingan maqsadli hisobotiga ko‘ra, so‘rovda qatnashgan 109 yurisdiksiyadan 91 tasi (83 %) *Travel Rule*ni joriy etuvchi qonunchilikni qabul qilgan. Ushbu 91 yurisdiksiyadan 55 tasi (60 %) provayderlarga nisbatan *Travel Rule* bo‘yicha hali birorta nazorat xulosasi, ko‘rsatma yoki majburlov chorasini qo‘llamagan.[11] Markazlashmagan moliya tizimlariga nisbatan FATF funksional yondashuvni qo‘llaydi: dasturiy ta’minotning o‘zi provayder hisoblanmaydi, biroq protokol ustidan nazorat yoki yetarli ta’sirni saqlab qolgan yaratuvchilar, egalar va operatorlar, tizim “markazlashmagan” deb atalishidan qat’i nazar, provayder sifatida e’tirof etilishi mumkin.[12]

Xorijiy davlatlar qonunchiligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Yevropa Ittifoqida soha

[9]United Nations, 2000. United Nations Convention against Transnational Organized Crime. New York, 15 November 2000, 6-modda.
[10]FATF, 2012. International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation: The FATF Recommendations (keyingi o‘zgartirishlar bilan). Paris: FATF, 15 va 16-tavsiyalar hamda ularning sharhlari.
[11]FATF, 2026. Targeted Update on Implementation of the FATF Standards on Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: FATF, July 2026. https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/targeted-updated-virtualassets-vasps-2026.html
[12]FATF, 2021. Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: FATF, October 2021.

uchta reglament bilan tartibga solinadi. **2023/1114-sonli Reglament (MiCA)** kripto-aktivlar xizmatlari provayderlari uchun yagona ruxsat berish tartibi va prudensial talablarni o‘rnatgan.[13] **2023/1113-sonli Reglament** *Travel Rule*ni provayderlar o‘rtasidagi barcha o‘tkazmalarga summadan qat’i nazar tatbiq etgan.[14] **2024/1624-sonli Reglament** 2027-yildan provayderlarga anonim hisobvaraqlar yuritishni va anonimlikni kuchaytiruvchi kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni taqiqlaydi.[15] O‘tkazma bilan birga uzatiladigan shaxsga doir ma’lumotlarga esa 2016/679-sonli Ma’lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR) qo‘llaniladi.[16]

Singapurda raqamli to‘lov tokenlari bilan bog‘liq xizmatlar 2019-yilgi **To‘lov xizmatlari to‘g‘risidagi qonun** asosida litsenziyalanadi; mijoz ma’lumotlarini xorijga uzatishda 2012-yilgi **Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (PDPA)** qabul qiluvchi tomonda taqqoslanadigan darajadagi himoyani talab qiladi.[17] Yaponiyada kripto-aktivlarni ayirboshlash provayderlari To‘lov xizmatlari to‘g‘risidagi qonun asosida majburiy ro‘yxatdan o‘tadi; *Travel Rule* Jinoiy daromadlar o‘tkazilishining oldini olish to‘g‘risidagi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida 2023-yildan amal qiladi; ma’lumotlarni xorijga uzatish Shaxsga doir axborotni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (APPI) talablariga bo‘ysundirilgan.[18]

Milliy qonunchilikka to‘xtaladigan bo‘lsak, kripto-aktivlar aylanmasining huquqiy asosi Prezidentning 2018-yil 3-iyuldagi **PQ-3832-son qarori** bilan belgilangan. Qarorda kripto-aktiv taqsimlangan ma’lumotlar reyestridagi raqamli yozuvlar majmuidan iborat, qiymatga va egasiga ega bo‘lgan mulkiy huquq sifatida ta’riflangan. 2023-yil 1-yanvardan O‘zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslari kripto-aktivlarni faqat milliy provayderlar orqali

[13]European Union, 2023. Regulation (EU) 2023/1114 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2023 on markets in crypto-assets (MiCA).
[14]European Union, 2023. Regulation (EU) 2023/1113 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2023 on information accompanying transfers of funds and certain crypto-assets.
[15]European Union, 2024. Regulation (EU) 2024/1624 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2024 on the prevention of the use of the financial system for the purposes of money laundering or terrorist financing.
[16]European Union, 2016. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation).
[17]Singapore. Payment Services Act 2019; Personal Data Protection Act 2012 (PDPA).
[18]Japan. Payment Services Act (Act No. 59 of 2009); Act on Prevention of Transfer of Criminal Proceeds (Act No. 22 of 2007); Act on the Protection of Personal Information (Act No. 57 of 2003) (APPI).

sotib olishi, sotishi va ayirboshlashi mumkin. Provayderlar Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan litsenziyalanadi; litsenziya talablariga legallashtirishga qarshi kurash qonunchiligiga rioya qilish, operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni besh yil saqlash va anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalar o‘tkazmaslik kiradi.[19] **“Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun**ga ko‘ra, provayderlar mijozni lozim darajada tekshirishi, ichki nazoratni tashkil etishi va shubhali operatsiyalar to‘g‘risida maxsus vakolatli davlat organiga xabar berishi shart.[20] O‘RQ-899-son Qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga **155⁴-modda** kiritildi. Unda kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda sotib olish, sotish yoki ayirboshlash, litsenziyasiz provayderlik faoliyati hamda provayderlarning anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalari uchun javobgarlik belgilangan.[21] Jinoyat kodeksining yangi **278⁸-modda**si xuddi shu qilmishlar ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilganda jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi; juda ko‘p miqdorda, mansab mavqeidan foydalanib yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan qilmish uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.[22]

Biroq normalarning matniy tahlili bir nechta bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Birinchidan, 278⁸-moddaning dispozitsiyasida mablag‘ning jinoiy kelib chiqishi zarur belgi sifatida ko‘rsatilmagan. Ikkinchidan, Jinoyat kodeksining **243-modda**sida jinoyat predmeti “mol-mulk” deb belgilangan, kripto-aktivlar unda bevosita tilga olinmagan.[23] Uchinchidan, 155⁴ va 278⁸-moddalarda *Travel Rule* talabini bajarmaganlik uchun alohida javobgarlik nazarda tutilmagan. To‘rtinchidan, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunning **15-modda**si ma’lumotlarni subyektlar huquqlarining munosib himoyasi ta’minlangan

[19]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.07.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori (2022-yil 27-apreldagi PF-121-son Farmon tahririda). https://lex.uz/docs/3806048

[20]O‘zbekiston Respublikasining 26.08.2004 yildagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 660-II-son Qonuni.

[21]O‘zbekiston Respublikasi, 1994. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (amaldagi tahriri), 155⁴-modda.

[22]O‘zbekiston Respublikasining 19.01.2024 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-899-son Qonuni. https://lex.uz/docs/6763849

[23]O‘zbekiston Respublikasi, 1994. Jinoyat kodeksi (amaldagi tahriri), 243-modda. https://lex.uz/docs/111453

davlatlarga uzatishga yo‘l qo‘yadi, **27¹-modda**si esa O‘zbekiston fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov beruvchi texnik vositalarning respublika hududida joylashtirilishini talab qiladi.[24] Ushbu normalar bilan *Travel Rule* bo‘yicha xorijiy provayderga ma’lumot uzatish majburiyati o‘rtasidagi nisbatni belgilovchi qoida amaldagi qonunchilikda aniqlanmadi.

Sud amaliyoti tahlili ham muhim natijalarni berdi. *United States v. Harmon* ishida (2020) AQSH Kolumbiya okrugi federal sudi bitkoinni “pul” deb, “Helix” mikser xizmatini esa litsenziyasiz pul o‘tkazmalari biznesi deb topdi. Sud to‘lov vositasi, ayirboshlash vositasi yoki qiymatni saqlash vositasi vazifasini bajaruvchi obyektni pul deb talqin qilib, himoya tomonining bitkoin pul emasligi haqidagi vajini rad etdi.[25]

AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) 2022-yilda Tornado Cash protokolini sanksiyalar ro‘yxatiga kiritgan. *Van Loon v. Department of the Treasury* ishida Beshinchi okrug apellyatsiya sudi 2024-yil 26-noyabrda bu qarorni vakolat doirasidan chetga chiqish deb topdi: hech kim o‘zgartira olmaydigan va nazorat qila olmaydigan smart-kontraktlarga egalik qilib bo‘lmaydi, shu sababli ular qonun ma’nosida “mol-mulk” emas va bloklanishi mumkin emas.[26] Qaror protokolni boshqargan shaxslarning javobgarligi masalasiga taalluqli emas.

Niderlandiyaning Sharqiy Brabant sudi 2024-yil 14-mayda protokol ishlab chiquvchisi A. Pertsevni jinoiy daromadlarni legallashtirishda aybdor deb topib, 64 oy ozodlikdan mahrum qildi.[27] *United States v. Storm* ishida Nyu-York Janubiy okrugi federal sudidagi hakamlar hay’ati 2025-yil 6-avgustda sudlanuvchini litsenziyasiz pul o‘tkazmalari biznesini yuritishga til biriktirishda aybdor deb topdi; pul yuvish va sanksiyalarni buzish ayblovlari bo‘yicha hay’at yakdil qarorga kelmadi.[28] Maqola tayyorlangan vaqtda ish bo‘yicha yakuniy sud qarori e’lon qilinmagan.

Toshkent shahar ichki ishlar organlarining OAVda e’lon qilingan xabariga ko‘ra, 2026-

[24]O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni, 15 va 27¹-moddalar. https://lex.uz/uz/acts/4396428
[25]United States v. Harmon, 2020. 474 F. Supp. 3d 76 (D.D.C. 2020).
[26]Van Loon v. Department of the Treasury, 2024. 122 F.4th 549 (5th Cir. 2024).
[27]Rechtbank Oost-Brabant (Niderlandiya), 2024. A. Pertsev ishi bo‘yicha 2024-yil 14-maydagi hukm.
[28]United States v. Storm, 2025. No. 23-cr-430 (S.D.N.Y.), hakamlar hay’atining 2025-yil 6-avgustdagi verdikti.

yilda bir shaxsga nisbatan qariyb 11 million AQSH dollari miqdoridagi kripto-aktivlarning noqonuniy aylanmasi yuzasidan Jinoyat kodeksining 278[8]-moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Tergov taxminiga ko‘ra, shaxs jinoiy yo‘l bilan topilgan mablag‘larni ularning kelib chiqishini yashirish maqsadida kripto-aktivlarga ayirboshlagan.[29]

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekistonda kripto-aktivlar sohasida legallashtirishga qarshi kurashning institutsional bloki xalqaro standartlar darajasida shakllanganini, biroq jinoyat-huquqiy va ma’lumotlar himoyasi bloklarida qonun darajasida hal etilmagan masalalar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Olingan natijalar tadqiqot gipotezasini asosan tasdiqlaydi. Institutsional blok - provayderlarni bozorga kiritish va mijozni tekshirish - FATF talablariga muvofiq, anonim kripto-aktivlar bo‘yicha esa milliy qonunchilik FATF minimumidan ham qat’iyroq. Bo‘shliqlar gipotezada taxmin qilingan joylarda-jinoyat-huquqiy blokda va ma’lumotlar himoyasi blokida-aniqlandi. Gipotezaning ikkinchi qismi, ya’ni bo‘shliqlarning kvalifikatsiyaga ta’siri, bitta milliy holat bilan tasdiqlanadi. Buni umumiy qonuniyat deb aytish uchun ko‘proq ish materiallari zarur.

Moliyaviy shaffoflik va shaxsga doir ma’lumotlar himoyasi o‘rtasidagi nisbatga kelsak, M. Campbell-Verduyn xavf-xatarga asoslangan yondashuvni tahdidlar va innovatsiya o‘rtasidagi maqbul muvozanat deb baholaydi.[30] Biroq bu yondashuvning boshqa tomoni ham bor: *Travel Rule* natijasida katta hajmdagi identifikatsiya ma’lumotlari xususiy provayderlar qo‘lida to‘planadi va ularning sizib chiqishi xavfi ortadi. Muallifning fikricha, bu ikki nuqtai nazar bir-birini inkor etmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **31-modda**si shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish huquqini kafolatlaydi,[31] ammo bu huquq mutlaq emas va qonunda belgilangan maqsadlarda mutanosib ravishda cheklanishi mumkin. Demak, masala identifikatsiyadan voz kechishda emas, to‘plangan ma’lumotlarni

[29]UzDaily.uz, 2026. В Ташкенте пресекли незаконный оборот криптоактивов на $11 млн. 15.07.2026. https://www.uzdaily.uz/ru/uzbekistan-tashkent-iunusabadskii-raion-guvd-tashkenta-kriptoaktivy-nezakonnyi-oborot-ugolovnoe-delo-samarkandskaia-oblast-sledstvie-statia-278-8-uk-ruz/

[30]Campbell-Verduyn M., 2018. Bitcoin, crypto-coins, and global anti-money laundering governance. Crime, Law and Social Change, Vol. 69, No. 2, pp. 283–305.

[31]O‘zbekiston Respublikasi, 2023. Konstitutsiya (yangi tahriri), 30.04.2023, 31-modda. https://lex.uz/docs/6445145

himoya qilish kafolatlaridadir.

Singapur va Yaponiya tajribasi moliyaviy monitoring va ma’lumotlar himoyasi yagona komplayens tizimining qismlari sifatida birga ishlashi mumkinligini ko‘rsatadi: ma’lumot xorijga faqat qabul qiluvchi tomonda taqqoslanadigan himoya ta’minlanganda uzatiladi. O‘zbekistonda esa 27[1]-moddadagi mahalliylashtirish talabi bilan *Travel Rule* bo‘yicha ma’lumotni xorijiy provayderga uzatish majburiyati o‘rtasidagi nisbat ochiq qolmoqda. Bu masala “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlar darajasida hal etilishi lozim.[32]

Markazlashmagan protokollarda javobgarlik subyekti masalasida FATF yo‘riqnomasi, P. De Filippi va A. Wright hamda D. Zetzsche va hammualliflarining xulosalari bir nuqtada kesishadi: tartibga solish ta’siri kodga emas, tizimga ta’sir o‘tkaza oladigan shaxslarga yo‘naltirilishi kerak.[33] 3-jadvaldagi qarorlar bu yondashuvni qisman tasdiqlaydi. *Van Loon* ishida sud o‘zgarmas kodni sanksiya obyekti deb tan olmadi, ammo xizmatni tashkil etgan shaxsning javobgarligini istisno qilmadi. Pertsev va *Storm* ishlari esa bitta protokol yuzasidan turli yurisdiksiyalarda turlicha natija berdi: Niderlandiyada ishlab chiquvchi legallashtirish uchun sudlangan, AQSHda hakamlar hay’ati esa faqat litsenziyasiz pul o‘tkazmalari biznesi bo‘yicha qarorga kelgan. Bu ishlab chiquvchi javobgarligi masalasida yagona huquqiy pozitsiya hali shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Muallifning fikricha, javobgarlik mezoni texnologiyaning nomi emas, shaxsning protokol ustidan *haqiqiy nazorati* va undan foyda olishi bo‘lishi kerak. Kod yozishning o‘zi uchun javobgarlik belgilash huquqiy aniqlik prinsipiga zid va qonuniy innovatsiyani cheklaydi. Nazoratni saqlab qolgan va jinoiy foydalanishdan xabardor bo‘la turib chora ko‘rmagan shaxsning javobgarligi esa asoslidir. Milliy qonunchilikdagi anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalar taqiqi bu muammoni faqat litsenziatlar doirasida hal qiladi;

[32]O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni. https://lex.uz/uz/acts/4396428 O‘zbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni.

[33]FATF, 2021. Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: FATF, October 2021. De Filippi P., Wright A., 2018. Blockchain and the Law: The Rule of Code. Cambridge, MA: Harvard University Press. Zetzsche D.A., Arner D.W., Buckley R.P., 2020. Decentralized Finance. Journal of Financial Regulation, Vol. 6, No. 2, pp. 172–203.

litsenziyasiz P2P-ayirboshlash va xorijiy mikserlardan foydalanish tartibga solishdan tashqarida qoladi.

Tartibga solish modeli va kvalifikatsiya muammosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston rezidentlarga faqat milliy provayderlar orqali operatsiya qilishga ruxsat beruvchi qat’iy modelni tanlagan. Bu model nazoratni osonlashtiradi, biroq aylanmaning bir qismini norasmiy sohaga, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardagi P2P-savdoga siqib chiqarish xavfini tug‘diradi. FATF ham litsenziyasiz va xorijda joylashgan provayderlarni aniqlashni aksariyat davlatlar uchun asosiy qiyinchilik sifatida qayd etadi.[34] Shu sababli taqiq legallashtirish uchun javobgarlik bilan aniq bog‘lanishi kerak.

278[8]-modda kripto-aktivlar aylanmasining belgilangan tartibini muhofaza qiladi, **243-modda** esa jinoiy daromadlarning qonuniy iqtisodiyotga kirib kelishiga qarshi qaratilgan. Shuning uchun qilmishni faqat 278[8]-modda bilan kvalifikatsiya qilish jinoiy daromadni yashirishning ijtimoiy xavfliligini to‘liq aks ettirmaydi. Muallifning fikricha, Toshkentdagi holat kabi vaziyatlarda qilmish jinoyatlar majmui qoidalari bo‘yicha har ikki modda bilan baholanishi lozim. *Harmon* ishidagi funksional talqin[35] sud amaliyoti “mol-mulk” tushunchasini kripto-aktivlarga nisbatan kengaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq jinoyat qonunida qonuniylik prinsipi amal qiladi, shu bois bunday talqin sud ixtiyoriga qoldirilmasdan, 243-modda matnida bevosita mustahkamlanishi kerak.

Qiyosiy tahlil natijalarini umumlashtirganda uch model ajralib turadi. Yevropa Ittifoqi modeli normalarning batafsilligi va yagona qo‘llanilishi bilan ustun, ammo yuqori komplayens xarajatlarini talab qiladi. Singapur va Yaponiya modelida litsenziyalash ma’lumotlar himoyasi bilan uyg‘unlashtirilgan. O‘zbekiston modeli bozorga kirishni qat’iy cheklaydi, biroq provayderlar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi va ma’lumotlar himoyasini qonun darajasida batafsil tartibga solmagan. Shu bois Yevropa Ittifoqi normalarini to‘liq ko‘chirishdan ko‘ra FATF standartining majburiy minimumini qonun darajasida mustahkamlash va Singapur hamda Yaponiya tajribasidagi ma’lumotlar himoyasi

[34]FATF, 2026. Targeted Update on Implementation of the FATF Standards on Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: FATF, July 2026. https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/targeted-updated-virtualassets-vasps-2026.html

[35]United States v. Harmon, 2020. 474 F. Supp. 3d 76 (D.D.C. 2020).

kafolatlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Huquqni qo‘llash amaliyotida ham bir qator to‘siqlar mavjud. Blokcheyn-tahlil vositalari va tegishli mutaxassislarning yetishmasligi raqamli izlarni kuzatishni, kripto-aktivlarni xatlash va musodara qilishni qiyinlashtiradi. Dalillarning katta qismi xorijiy provayderlarda saqlanadi va ularni olish xalqaro huquqiy yordam mexanizmlarining tezligiga bog‘liq. Shu munosabat bilan tergov va sud organlari xodimlarini blokcheyn-tahlil bo‘yicha tayyorlash, xorijiy provayderlar va vakolatli organlar bilan tezkor hamkorlik kanallarini yo‘lga qo‘yish zarur. Provayderlarning axborot tizimlaridagi zaifliklarni aniqlashda xorijda qo‘llanilayotgan ***bug bounty*** dasturlari kiberxavfsizlikni kuchaytirishning qo‘shimcha vositasi bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham qayd etish lozim. Birinchidan, kripto-aktivlarga oid milliy sud qarorlari ochiq manbalarda deyarli e’lon qilinmaydi, shu sababli milliy amaliyot bitta holat va u bo‘yicha OAVda e’lon qilingan rasmiy xabar asosida baholandi. Bu gipotezaning tekshirilishi bo‘yicha xulosani umumlashtirish imkonini cheklaydi. Ikkinchidan, tadqiqot doktrinal xususiyatga ega: milliy qonunchilik ijrosining samaradorligi bo‘yicha miqdoriy ma’lumotlar tahlil qilinmadi. Uchinchidan, tahlil qonunlar va Prezident hujjatlariga qaratildi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligining idoraviy hujjatlari to‘liq qamrab olinmadi; shu bois *Travel Rule* bo‘yicha baho qonun darajasidagi tartibga solishni aks ettiradi. To‘rtinchidan, Singapur va Yaponiya qonunlari ingliz tilidagi matnlar asosida o‘rganildi, Yaponiya qonunlarining tarjimalari esa rasmiy kuchga ega emas. Beshinchidan, 2024/1624-sonli Reglamentning tegishli normalari 2027-yildan qo‘llaniladi, *Storm* ishi bo‘yicha esa yakuniy qaror yo‘q, shuning uchun ularning amaliy ta’siri haqida xulosa chiqarish erta.

Tadqiqot natijalaridan Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka o‘zgartirishlar tayyorlashda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini ishlab chiqishda, Istiqbolli loyihalar milliy agentligining nazorat faoliyatida, tergov amaliyotida hamda provayderlarning ichki nazorat qoidalarini tuzishda foydalanish mumkin. Keyingi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi: 243 va 278^{8}-moddalar bo‘yicha jinoyat ishlari materiallarini

empirik o‘rganish; milliy provayderlar o‘rtasida *Travel Rule*ni bajarish xarajatlari va texnik yechimlari bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazish; stabilkoinlar va zanjirlararo ko‘priklar orqali legallashtirish sxemalarini tahlil qilish; Markaziy Osiyo davlatlari qonunchiligi bilan qiyosiy tadqiqot o‘tkazish.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qonunchiligi FATF 15-tavsiyasining institutsional talablariga-provayderlarni litsenziyalash, ularga legallashtirishga qarshi kurash majburiyatlarini yuklash va litsenziyasiz faoliyat uchun javobgarlik belgilashga -muvofiq, anonim kripto-aktivlar bo‘yicha esa FATF minimumidan qat’iyroq. 2024-yilda ma’muriy va jinoiy javobgarlikning joriy etilishi ilgari mavjud bo‘lgan huquqiy bo‘shliqni qisman bartaraf etdi. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 243-moddasi predmetida kripto-aktivlarning bevosita ko‘rsatilmagani kvalifikatsiyada noaniqlik tug‘dirmoqda, *Travel Rule* esa qonun darajasida belgilanmagan va uning shaxsga doir ma’lumotlarni mahalliylashtirish talabi bilan nisbati aniqlanmagan. Xorijiy sud amaliyotida esa markazlashmagan protokol ishlab chiquvchisining javobgarligi masalasida yagona yondashuv hali shakllanmagan. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, Jinoyat kodeksining **243-modda**si dispozitsiyasida *“mol-mulk”* tushunchasi kripto-aktivlarni ham qamrab olishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida esa **243** va **278⁸-modda**larni farqlash hamda jinoyatlar majmui qoidalarini tushuntirish lozim.

Ikkinchidan, *Travel Rule* qonun darajasida belgilanishi, uni bajarmaganlik uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning **155⁴-modda**sida alohida javobgarlik nazarda tutilishi kerak. Yevropa Ittifoqi tajribasidan kelib chiqib, talabni o‘tkazma summasidan qat’i nazar qo‘llash masalasini ko‘rib chiqish mumkin.

Uchinchidan, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlarda provayderlar uchun ma’lumotlarni *shifrlangan holda saqlash*, kiberxavfsizlik insidentlari to‘g‘risida xabar berish va ma’lumotni xorijga faqat munosib himoya mavjud bo‘lganda uzatish majburiyatlarini, shuningdek, **27¹-modda** bilan *Travel*

Rule o‘rtasidagi nisbatni aniq belgilash zarur.

To‘rtinchidan, markazlashmagan protokollar bo‘yicha javobgarlik kodning o‘ziga emas, uning ustidan *haqiqiy nazoratni* amalga oshiruvchi va undan foyda oluvchi shaxslarga yo‘naltirilishi kerak. Bu mezonni qonunchilikda oldindan belgilash huquqiy aniqlikni ta’minlaydi.

Beshinchidan, jinoyat-protsessual qonunchilikda kripto-aktivlarni *xatlash, saqlash va musodara qilish* tartibini aniq belgilash, tergov organlarini blokcheyn-tahlil vositalari bilan ta’minlash lozim.

Umuman olganda, kriptovalyuta vositasida legallashtirishga qarshi kurashning samaradorligi taqiqlarning qat’iyligiga emas, normalarning aniqligiga, ularning izchil ijrosiga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik salohiyatiga bog‘liq. Moliyaviy shaffoflik va shaxsga doir ma’lumotlar himoyasi o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda aniqlangan bo‘shliqlarni bartaraf etish kiberjinoyatchilikning oldini olishga ham, raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. European Union, 2016. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation).

2. European Union, 2023. Regulation (EU) 2023/1113 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2023 on information accompanying transfers of funds and certain crypto-assets.

3. European Union, 2023. Regulation (EU) 2023/1114 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2023 on markets in crypto-assets (MiCA).

4. European Union, 2024. Regulation (EU) 2024/1624 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2024 on the prevention of the use of the financial system for the purposes of money laundering or terrorist financing.

5. FATF, 2012. International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation: The FATF Recommendations (keyingi

o‘zgartirishlar bilan). Paris: FATF.

6. FATF, 2021. Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: FATF, October 2021.

7. FATF, 2026. Targeted Update on Implementation of the FATF Standards on Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: FATF, July 2026. https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/targeted-updated-virtualassets-vasps-2026.html

8. Japan. Payment Services Act (Act No. 59 of 2009); Act on Prevention of Transfer of Criminal Proceeds (Act No. 22 of 2007); Act on the Protection of Personal Information (Act No. 57 of 2003) (APPI).

9. Singapore. Payment Services Act 2019; Personal Data Protection Act 2012 (PDPA).

10. United Nations, 2000. United Nations Convention against Transnational Organized Crime. New York, 15 November 2000.

11. Rechtbank Oost-Brabant (Niderlandiya), 2024. A. Pertsev ishi bo‘yicha 2024-yil 14-maydagi hukm.

12. United States v. Harmon, 2020. 474 F. Supp. 3d 76 (D.D.C. 2020).

13. United States v. Storm, 2025. No. 23-cr-430 (S.D.N.Y.), hakamlar hay’atining 2025-yil 6-avgustdagi verdikti.

14. Van Loon v. Department of the Treasury, 2024. 122 F.4th 549 (5th Cir. 2024).

15. O‘zbekiston Respublikasi, 2023. Konstitutsiya (yangi tahriri), 30.04.2023. https://lex.uz/docs/6445145

16. O‘zbekiston Respublikasi, 1994. Jinoyat kodeksi (amaldagi tahriri). https://lex.uz/docs/111453

17. O‘zbekiston Respublikasi, 1994. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (amaldagi tahriri).

18. O‘zbekiston Respublikasining 26.08.2004 yildagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 660-II-son Qonuni.

19. O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi “Shaxsga doir ma’lumotlar

to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni. https://lex.uz/uz/acts/4396428

20. O‘zbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni.

21. O‘zbekiston Respublikasining 19.01.2024 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-899-son Qonuni. https://lex.uz/docs/6763849

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.07.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori (2022-yil 27-apreldagi PF-121-son Farmon tahririda). https://lex.uz/docs/3806048

23. Campbell-Verduyn M., 2018. Bitcoin, crypto-coins, and global anti-money laundering governance. Crime, Law and Social Change, Vol. 69, No. 2, pp. 283–305.

24. De Filippi P., Wright A., 2018. Blockchain and the Law: The Rule of Code. Cambridge, MA: Harvard University Press.

25. Foley S., Karlsen J.R., Putniņš T.J., 2019. Sex, Drugs, and Bitcoin: How Much Illegal Activity Is Financed through Cryptocurrencies? The Review of Financial Studies, Vol. 32, No. 5, pp. 1798–1853.

26. Zetzsche D.A., Arner D.W., Buckley R.P., 2020. Decentralized Finance. Journal of Financial Regulation, Vol. 6, No. 2, pp. 172–203.

27. UzDaily.uz, 2026. В Ташкенте пресекли незаконный оборот криптоактивов на $11 млн. 15.07.2026. https://www.uzdaily.uz/ru/uzbekistan-tashkent-iunusabadskii-raion-guvd-tashkenta-kriptoaktivy-nezakonnyi-oborot-ugolovnoe-delo-samarkandskaia-oblast-sledstvie-statia-278-8-uk-ruz/